

# NATIONAL AND WORLD EXPERIENCE IN YOUTH EDUCATION

Ruziyev Alisher Xolmurodovich

QarDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari kafedrası professori

---

## **Abstract:**

This article analyzes the role and significance of national values and world experiences in the upbringing of young people. The study examines traditional methods of upbringing and modern approaches to spiritual, moral and social education of the younger generation, as well as modern approaches based on the experience of developed countries. It also shows effective ways to harmonize the national education system with global pedagogical practices. The article identifies cooperation between the family, educational institutions and society as a key factor in the upbringing of young people. The research results include scientific and practical recommendations directed to improving youth education.

**Keywords:** Education, moral education, legal education, mental education, aesthetic education, physical education, labor education.

## **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va jahon tajribalarining o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan kamol toptirishda an'anaviy tarbiya usullari hamda rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslangan zamonaviy yondashuvlar o'rganiladi. Shuningdek, milliy tarbiya tizimini global pedagogik tajribalar bilan uyg'unlashtirishning samarali yo'llari ko'rsatib beriladi. Maqolada yoshlar tarbiyasida oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning o'zaro hamkorligi muhim omil sifatida yoritiladi. Tadqiqot natijalari yoshlar tarbiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, ahloqiy tarbiya, huquqiy tarbiya, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi.

## **KIRISH**

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday dedi: "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Ayni paytda yana va yana global ko'lamlarda aynan yoshlar tarbiyasida yechimini kutayotgan muammola mavjudligini tan olishimiz, e'tirof

etishimiz kerak. O‘zi va o‘zgalarning taqdiriga, kelajagiga befarqlik, shafqatsizlik, ishyoqmaslik, halol mehnatdan bo‘yin toblash, axloqsizlik, yengil-yelpi va boshqalar hisobiga kun kechirish, giyohvandlik, o‘g‘irlik, jinoyatchi guruhlar, ekstremistlar va terroristlar faoliyatida ishtirok etish ham jamiyatning aynan navqiron yoshdagi a‘zolarini o‘z domiga tortayotgani sir emas. Ilm o‘rganish, ma‘lumot olish uchun sharoit yaratib berayotgan axborot texnologiyalari, jumladan, Internet ham muammolar manbaiga aylanib borayotganini ta’kidlash zarur.

## **ASOSIY QISM**

O‘zbekiston bugungi kunda kuchli iqtisodiy salohiyatga ega, ma’naviy va axloqiy asoslarni yaratgan mustaqil demokratik davlat. Mamlakatimiz yosh avlod tarbiyasini tarbiyalashga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 15 iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. «Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan», deya ta’kidladi Prezidentimiz. «Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda», - dedi prezident. «Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi», - dedi prezident va e’tiqod, oilaviy qadriyatlarga putur etkazayotgan xavflarni sanab o‘tdi. «Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda», - dedi u<sup>1</sup>.

Jamiyat hayotidagi asosiy masala - ularning ma’naviy madaniyatini rivojlantirish va ma’naviy qadriyatlarini o‘zgartirishdir. Madaniyatni ijtimoiy-gumanitar bilimlarda inson hayotiy hodisasi sifatida o‘rganish eng muhim jihatlaridan biri madaniy reproduksiyadir, bu cheklangan miqdordagi qadriyatlar, shu jumladan qadriyatlar o‘tmishidan kelajakka o‘tish, rivojlanish jarayoni muhim o‘zgarishdir.

XX asr insoniyat jamiyatining rivojlanishida muayyan bir chiziq chizib chiqdi va bu asrning insoniyatining taqdiri qanchalik bog‘liqligini anglatadigan yangi yangi paradigma paydo bo‘ldi. Uning mazmuni tarbiyaning sayyoraviy rolini odamlar jamiyatini rivojlantirishga,

---

<sup>1</sup> <https://sputniknews-uz>.

asosiy omili sifatida tarixiy zaruratga bog'liq. Shuning uchun "tarbiyali shaxs" modelini o'rganish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy traqqiyot tarbiyani ijtimoiy institutlar tomonidan keyingi avlodlarga yetkazilib, insoniyatning tarixiy rivojlanishidagi davriy jarayonlar, bir tomondan, madaniy qadriyatlarni va urf-odatlarini saqlab qolish moyilligini, ikkinchi tomondan, zamonaviy jamiyatning dinamik xarakterini hisobga olib mavzu-obyektga mos ravishda yoshlarning ma'naviy an'anasini yangilashga intilishi ko'rsatadi.

Zamonaviy tendensiyalar asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Zamonaviy axborot tizimlari, inson hayotining barcha jabhalariga kirib bordi, yangi hayot maydonlarini egalladi, iste'molchilik madaniyatini yuzaga keltirdi. Uning hayotini butunlay beqarorlashtiradi, axloqiy modellarini degdaratsiya bo'lishiga olib keldi. Asta sekinlik bilan milliy tarbiyaning o'ziga xos bo'lgan shakllari va tarbiyaning milliy tajribalari o'z kuchini yo'qota boshladi. Zamonviy jamiyatning intensivlashib borishi jarayoni milliy tarbiyada na'muna bo'lish, pand-nasixat, o'zaro hurmat, itoatkorlik kabilarni bir muncha pasaytirdi.

Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlardan axborot orqali ommaviy madaniyatning kirib kelishi, insonning axloqiy barqarorligi, milliy qadriyatlarni saqlab qolish imkoniyatini kamaytirmoqda. Suning uchun ham mustaqil fikrlaydigan, faol ishlaydigan, intellektual salohiyatga ega bo'lgan va axloqiy tamoyillarga ega bo'lgan «yangi» turdagi fuqarolarni tarbiyalashga katta etibor qaratish lozim. Yoshlar - bu maxsus ijtimoiy jamoa va qiymat tizimining tarkibiy tuzilishi va shakllanishi jarayonida mavjud bo'lgan juda katta innovatsion kuchdir. Bu yerda yoshlarni sotsialashtirishning asosiy vositalaridan biri insoniyatning to'plangan bilimlari, qadriyatlari, meyorlar va shaxslarning ma'naviy dunyosini ifodalovchi modellar (shaxslar, ijtimoiy guruhlar, jamoalar va butun jamiyat)ni o'z ichiga olganligidadir. Yoshlar jamiyatning umumiy madaniy va kasbiy talablarini oshirish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini rivojlantirishni talab qiladi. Yoshlarning ijtimoiy-madaniy mavqeining o'ziga xos xususiyatlari, bo'sh vaqtida namoyon bo'ladi, bu boshqa yosh guruhlarining bo'sh vaqtlariga nisbatan faol va rekreatsion shakllarning xilma-xilligi va ustunligi bilan ajralib turadi. O'z-o'zidan ma'lumki, dam olish - bu shaxsning jismoniy va aqliy kuchini tiklash funksiyasini amalga oshiradigan shaxsiy tadbirlar to'plami. Bunda jismoniy faol, passiv dam olish, muloqot, o'yin-kulgi, bo'sh dam olish, yurish, madaniyatga qarshi tadbirlar (spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, qimor o'yinlari va hokazo), maqsadsiz, istak va ehtiyojsiz tasodifiy faoliyatlar yoshlarning jamiyatdagi manaviy dunyosining buzulishiga olib keladi. Shuning uchun jamiyatni ma'naviy va jismoniy taraqqiyotiga ta'siri sifatida uning tartibga solish muammosi asosiy vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, dam olish nisbatan mustaqil (shaxsiy) sohadir va yoshlarning hayotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ularning dunyoqarashlariga bog'liq. O'yin-kulgi sohasida, yoshlar boshqa joydan ko'proq erkin inson sifatida harakat qilishadi.

## **XULOSAVAMUNOZARA**

Darslarni tanlash va bo'sh vaqt yo'qligi buning sababi bo'lishi mumkinligi takidlanadi. Bir yosh yigit mustaqil qaror qabul qilganda, uning ahamiyati ko'tariladi. Dam olishning ko'p

sohasi professional va oilaviy uy vazifalaridan ozod bo'lish bilan tavsiflanadi, bundan tashqari, uning doirasida yoshlarning shaxsiga nisbatan institusional bosim kuchayadi. Bugungi kunda yoshlarning dam olish sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi, masalan; dam olishning yangi shakllari paydo bo'lib, ularning tabiati va shakli o'zgarib bormoqda. Zamonaviy yoshlarning bo'sh vaqti tobora an'anaviy xususiyatlar ega bo'lganligi ularning oshib borishi kuzatilmoqda. O'yin-kulgi turlarini tanlash, xususan, shaxsiy rivojlanish darajasini, uning yo'nalishini, hayot pozitsiyasining shakllanish darajasini aks ettiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qur'oni Karim. Abdulaziz Mansur tarjimasi. T., 2001.
2. Abu Abdulloh .Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis 4 jildlik. T., 1997.
3. Abu Iso at-Termiziy. Sunnani Termiziy. T., 1999.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. T.:O'FMJ., 2010
5. Abdulla Sher.Estetika. Darslik. T.:O'zbekiston, 2016
6. Fitrat. Najot yo'li. T., 2001.
7. Ubaydullayeva Sevara. Oila madaniyati. T., 2015.
8. Ibrohimov Abduqahhor. Yorug'lug'. T., 2006.
9. M.Raxmonova.Tarbiya. Qarshi, BIG MAKRO WORLD .2025.